

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“KELISHILGAN”
Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi:

_____ 2021 yil
“ ”

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat universiteti
rektori:
prof. R.I. Xalmuradov



_____ 2021 yil

**5A411101 – DORIVOR O‘SIMLIKLARNI YETISHTIRISH
TEXNOLOGIYASI**

**MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGIGA
KIRISH SINOVLARI UCHUN
MAXSUS FANLARDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Annotatsiya:

Dastur 5A411101 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5411100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishining 2017 yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

TUZUVChILAR:

Abduraximov M.K. - SamDU, Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar kafedrası professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori

Dastur Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi fakultetining 2021 yil 28 iyundagi № 14 sonli kengash yig‘ilishida, Universitet kengashining 2021 yil 30 iyundagi 11-son yig‘ilishida muhokama etilgan va tavsiya etilgan.

KIRISH

5411100–Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi bakalvriat ta’lim yo‘nalishi - fan va qishloq xo‘jaligi hamda o‘rmon xo‘jaligining ishlab chiqarish sohasi yo‘nalishi bo‘lib, yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish maqsadida farmatsevtika sanoati uchun dorivor xom ashyo maxsulotlarini ishlab chiqish, ularni ekin maydonlarini borpo etish maqsadida - urug‘ tayyorlash, ko‘chat yetishtirish, ko‘paytirish va sanoat plantatsiyalarini barpo etish texnologiyalariga, soha istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikma, mutaxassislik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarning majmuasini qamrab oladi.

Ta’lim yo‘nalishi negizidagi mutaxassislikning vazifasi – talabalar bilimni chuqurlashtirish, dorivor o‘simlik plantatsiyasi mahsuldorligi va sifatini oshirish maqsadida yer, suv, energetika va moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishdan iborat bo‘lgan qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi fan va ishlab chiqarish; dorivor o‘simlikshunoslikda ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish; o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimi muassasalarda maxsus fanlarni o‘qitishni tashkillashtirish bo‘yicha hamda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarini oshirish va ko‘nikma hosil qilishdan iborat.

5411100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi bakalvriat ta’lim yo‘nalishi negizidagi 5A411101 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi magistratura mutaxassisligiga kiruvchi talabalar uchun ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga asosan 5 ta ixtisoslik fanlari: Tabiiy dorivor o‘simliklar, Dorivor o‘simliklarni biologiyasi va ekologiyasi, Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi, Dorivor o‘simlik xom ashyolarini tayyorlash, saqlash va dastlabki qayta ishlash bo‘yicha test savollari shakllantirilgan.

Bu fanlar o‘z negizida qamrab olingan ma’lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

TABIIY DORIVOR O‘SIMLIKLAR

fani bo‘yicha:

“Tabiiy dorivor o‘simliklar” fani chet el florasida va O‘zbekiston florasida tabiiy holda tarqalgan asosiy dorivor o‘simliklar turlari, ularni tarqalish areali, tabiiy populyatsiyasi va resurslari, dorivorlik xususiyatlari haqida atroflicha ma’lumot beriladi va o‘rgatiladi.

O‘zbekiston florasida o‘zining xilma-xil nabotot olami bilan alohida ajralib turadi. Masalan, tog‘ minlaqalarida shu mintaqa ekologik sharoitlariga mos

o‘simliklar tarqalgan bo‘lsa, cho‘l xududi o‘simliklari o‘zining xilma xilligi bilan alohida farqlanadi.

Hozirgi paytda tibbiyotda qo‘llanilayotgan dorivor vositalarning 50% o‘simlik xom-ashyosi zaxirasi asosida ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga dorivor o‘simliklar bilan davolashga asoslangan xalq tabobati usullariga qiziqish ortmoqda.

O‘zbekiston florasida tabiiy holda kiyik o‘ti, tog‘ rayhon, radiola, sumbul, do‘lana, bodom, pista, jiyda, zirk, na‘matak, chakanda, shilvi, efedra, dalachoy, bo‘znoch, bo‘yi modaron, yalpiz va boshqalar kabi bebaho dorivor o‘simliklar zaxiralariga boydir. Shu bois, mazkur fanni o‘zlashtirilishi O‘zbekiston florasida dorivor o‘simliklari tabiiy resurslarini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish hamda tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

DORIVOR O‘SIMLIKLARNI BIOLOGIYASI VA EKOLOGIYASI

fani bo‘yicha

Ushbu fan respublikamiz sharoitida tabiiy va madaniy holda o‘sadigan dorivor o‘simliklarni biologiyasi va ekologiyasini kompleks o‘rganishga qaratilgan. Dorivor o‘simlik turlarining bioekologik xususiyatlarini o‘rganish, ularni biologik va ekologik guruhlash, tabiiy populyatsiyasi va resurslari hamda keyinchalik ularni madaniy holda ekin maydonlarini barpo etishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Biologik resurslardan jadal foydalanish o‘simlik tabiiy zaxiralarining chegaralanib qolishiga va tabiiy bioxilma-xillikni kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi kunda 700 tadan ortiq dorivor o‘simlik turlari aniqlangan. Ularning 120 ta turdan ortiq dorivor o‘simliklardan dori vositalari ishlab chiqariladi.

So‘nggi yillarda mahalliy floramizda endem, areli torayib borayotgan, xalq xo‘jaligida foydalanish koeffitsienti (ozuq-ovqat, farmatsevtika, lak bo‘yoq, to‘qimachilik va b.q.) yuqori bo‘lgan o‘simliklar turlari muhofazaga muhtoj bo‘lib qolmoqda yoki O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” ga kiritilgan bo‘lib, ularning soni 301 taga yetdi. Shu bois, dorivor o‘simliklarni muhofazasi uchun, ularning biologiyasi va ekologiyasini atroflicha o‘rganish, ularni madaniylashtirish va sanoat plantatsiyalarini barpo etishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Makur fan dorivor o‘simliklar turlarining bioekologik xususiyatlari va muhofaza qilish usullarini o‘rganish kabi muhim nazariy va amaliy bilimlarni qamrab oladi.

DORIVOR O‘SIMLIKLAR INTRODUKSIYASI

fani bo‘yicha:

Ushbu fanda Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20-apreldagi №32 sonli bayonnomasi, 16-bandini ijrosini ta‘minlash maqsadida “Tibbiyot amaliyotiga

joriy etilgan dorivor o‘simliklarni madaniylashtirish va yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha hamkorlikda maqsadli izlanishlar olib borish” nazarda tutilgan.

Respublikamizning turli iqlim va tuproq sharoitlariga (sug‘oriladigan, lalmikor, sho‘r yerlarda va b.q.) dorivor o‘simliklarni introduksiyasining nazariy va amaliy ahamiyati, introduksiya mohiyati va uslublari, introduksiya omillari va limit omillar, introduksiya sharoitida dastlabki agrotexnik qarovlarni amalga oshirish masalarini qamrab oladi.

Fan chet el florasiga mansub istiqbolli dorivor o‘simlik turlarini tanlash va yangi sharoitga introduksiya qilish mexenizmi, introduksiya bosqichlarini va usullarini, introduksiya sharoitida dorivor o‘simliklarni o‘stirish va ko‘paytirish usullarini, dorivor o‘simliklarni introduksiya qilish va kolleksiyalarini yaratish usullari, introdutsentlarning agrotexnikasini ishlab chiqish, O‘zR “Qizil kitobi” ga kiritilgan dorivor o‘simliklar turlarini o‘rganish va introduksiya qilish kabi bilimlarni qamrab oladi.

DORIVOR O‘SIMLIKLARNI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

fani bo‘yicha:

Dorivor o‘simliklarni yetishtirish fani shu sohadagi fanlar ichida asosiy o‘qitiladigan ba’zaviy fan bo‘lib, madaniy xolda dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyalarini nazariy va amaliy asoslarini o‘rgatishga qaratilgan. Uni o‘zlashtirish davomida mutaxassislar O‘zbekiston sharoitida dorivor o‘simliklarni yetishtirish, ulardan sifatli xom ashyo tayyorlash hamda mahalliy florani yangi introdutsent o‘simlik turlari bilan boyitish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni qamrab olganlar.

Mazkur fan doirasida dorivor o‘simliklarni bioekologik xususiyatlarini hisobga olgan holda hududiy joylashtirishni, dorivor o‘simliklarni yetishtirishda yerni ekishga tayyorlash, ekish, qator oralariga ishlov berish, sug‘orish va mineral oziqlantirish, almashlab ekish, begona o‘tlarga qarshi kurash usullarini madaniylashtirish darajasi, plantatsiyalarini tashkil etish texnologiyasi, xisob-texnologik xaritalarini ishlab chiqish kabi ko‘nikmalarni shakllantirgan.

DORIVOR O‘SIMLIK XOM ASHYOLARINI TAYYORLASH, SAQLASH VA DASTLABKI QAYTA ISHLASH

fani bo‘yicha:

Ushbu fan farmatsevtika sanoati uchun dorivor o‘simliklar xom ashyosini tayyorlash, quritish, saqlash va dastlabki qayta ishlash usullarini o‘zlashtirish bo‘yicha va bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish nazarda tutilgan.

Farmatsevtika sanoatini dorivor o'simliklar xom ashyosiga bo'lgan talabni qondirish, bevosita dorivor o'simliklarni me'yorda quritish, saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasi bilan bog'liq. Bunda yetishtirilgan maxsulotni tayyorlash, quritish va saqlash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish uchun maxsus malakalar talab etiladi. Dorivor o'simliklar tarkibidagi biologik faol moddalarni saqlab qolish, FS talablariga doir ma'lumotlar, xom ashyoni normativ me'yoriy hujjatlar asosida rasmiylashtirish kibi masalalarga e'tibor qaratilgan. Muzkur fanda xom ashyoni tayyorlash, saqlash va qayta ishlar masalalariga doir ma'lumotlar atroflicha bayon etilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi 2017 yil 11 maydagi PF-5041-sonli Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
4. «O'rmon to'g'risida» gi qonun.
5. Ahmedov O., Ergashev A., Abzalov A Dorivor o'simliklar va ularni o'stirish texnologiyasi. O'kuv qo'llanma. Toshkent. 2008. 232 b
6. Maznev N.I. Высокоэффективные лекарственные растения. Bolshaya ensiklopediya narodnoy meditsiny. M.: Eksmo, 2012. — 656 c.
7. Ivashin D.S., Katina Z.F., Ribachuk Ch.Z. Spravochnik po zagotovki lekarstvennix rasteniy. Kiyev 1989g. Darslik 170 s
8. Xolmatov X.X., Ahmedov U.A. Farmakagnoziya. Darslik. T., 1995y.370b.
9. Xalmatov X.X., Usmonxo'jayev A.X., Maxsumov M.I., Axmedov O'.A.. Atlas lekarstvennykh rasteniy Uzbekistana.
10. Xalmatov X.X., Xarlamov I.A., Mavlankulova Z.I.. Lekarstvennye rasteniya Sentralnoy Azii. T., izd. med. literatury im. Abu Ali ibn Sino, 1998, 296 s.
11. Ergashev A., Ahmedov O., Abzalov A., Yulchiyeva M., Mamatkarimov A. «Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi» Toshkent 2009.

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING
MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI
UCHUN MAXSUS FANLARDAN ABITURIYENTLARNING
BILIMLARINI BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	TEST - kompyuterda
Test yechish uchun ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Test savollari soni	50
Har bir to`g`ri javob uchun ball	2
Maksimal ball	100
O`tish bali	55